# FORS TILIDA “SEVGI”, “MUHABBAT”NI IFODALOVCHI LEKSEMALAR.

**Abdullayeva Ziyodaxon Husniddin qizi**
*Shf va tarjimashunoslik fakulteti 1-kurs fors-ingliz guruhi talabasi*
*Ilmiy rahbar: o‘qituvchi* **S. Sultanxodjayeva**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola insoniyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan sevgi va uning hayotimizdagi o‘rni haqidadir. Maqola yozish jarayonida fors tilida sevgi va muhabbatni ifodalovchi leksemalar haqida bayon etildi va tahlil qilindi. Shuningdek, mavzu yuzasidan hadislar keltirilib, bir nechta manbalardan foydalanildi.*

**Tayanch so‘zlar:** *Sevgi, muhabbat, ishonch, mehr, vafo qalb, dil, yurak.*

Sevgi nima?

Insoniyat paydo bo‘libdiki, shu savol ustida bosh qotiradi. Ammo javob topa olmaydi. Agar inson sevgining barcha sir asrorlarini bilganida edi, uning modeli-qolipini yaratgan bo‘lardi. Sevgi hech qanday qolipga sig‘magani uchun ham sirli va abadiydir. Har bir inson sevgini o‘z talqiniga ko‘ra tushunadi, ba’zilar sevgi oshkora bo‘ladi desa, ba’zilar sevgi yashirin bo‘ladi deydi. Sevgi ilohiy kuch. Qalbida muhabbat tuyg‘usi bor odam razillik qilmaydi. Sevgi, muhabbat, mehr, vafo, ishonch, suyanch kabi tushunchalar bir biriga chambarchas bog‘liqdir.

Muhabbat turlicha bo‘lishi mumkin. Insonlarga nisbatan, ya’ni biz ota onamizni, do‘stlarimizni, yaqinlarimizni, ustozlarimizni, va albatta juftimizni sevamiz ularga mehr-muruvvat ko‘rsatamiz, yaxshilik tilaymiz.

Sevgi degan so‘zni eshitganda ko‘pchilik insonning hayoliga ko‘nglidan joy olgan va mehrini qozongan inson keladi. Insoniyat tarixida eng go‘zal va pokiza muhabbat albatta mo‘minlar onasi Oysha roziyallohu anxoning Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v ga bo‘lgan va u zotning esa onamizga bo‘lgan muhabbatlaridir. Oysha roziyallohu anxo aytadilar: “Tunlarning birida Rasululloh: “Ey Oysha, meni holi qoldiring, bu tun Robbimga ibodat qilay”, dedilar. Men javob qildim: “Qasamki, men sizning yoningizda bo‘lishni sevaman va yana sizni sevintiradigan ishlarni ham sevaman!”

Ushbu hadisdan Oysha onamiz Payg‘ambarimiz s.a.v. ga nisbatan bo‘lgan sevgi-muhabbatlari qay darajada bo‘lganini bilib olish mumkin. Payg‘ambarimizning (s.a.v.) Allohga va uning buyruqlariga sevgi - itoatlari ham ushbu hadisda o‘z aksini topgan. Yana bir hadisda keltirilishicha:

Aytishlaricha, Oysha roziyallohu anho Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan turmush qurganlarida: «Yo Rasululloh, meni sevasizmi?» deb so‘rar edilar. — Ha, Oysha, albatta, men seni sevaman! – deb javob berar edilar Pay’gambarimiz s.a.v. Oysha roziyallohu anho Payg‘ambarimiz ularni qanday sevishlarini ko‘proq bilmoqchi bo‘lar edilar, va Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) javob berar edilar: "Arqon tuguni kabi kuchli va mustahkam. Keyin Oisha roziyallohu anho tez-tez so‘rab turar edilar: “Yo Rasululloh, arqon tugunining ahvoli qanday?”. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam esa har doim: “Huddi birinchi kundagidek!” deb javob berar edilar. Payg‘ambarimiz s.a.v.ning va

Oysha onamizning bir birlariga bo‘lgan munosabatlari, sevgilari va mehr - muhabbatlari dunyodagi butun musulmon ummatiga misol bo‘la oladi.

Endi esa muhabbatimizni sevimli insonimizga fors tilida qanday izxor qilishni ko‘rib chiqamiz.

دو ست دارم، علاقه ب هت دارم - Men seni sevaman.

خیلی دو ست دارم - Men seni juda ham sevaman.

تا آخره دنیا دو ست دارم - Men seni dunyoning oxirigacha sevaman.

دیوونه وار دو ست دارم - Men seni telbalarcha sevaman.

عا شق تم من - Men senga oshiqman.

ع شق منی تو - Sen mening sevgimsan.

ه مه چیز منی تو - Sen mening borlig‘imsan.

ه مه دنیای منی تو - Sen mening dunyoyimsan

م ت علق به تو ام - Men senga tegishliman.

زندگی منی تو - Sen mening hayotimsan.

دلم برات تنگ شده - Seni sog‘indim.

دلم برات یه ذره شده - Men seni juda sog‘indim.

ه می شه بهت فکر می کنم، ه می شه به فکرتم - Men har doim sen haqingda o‘ylayman.

هر گز من رو تنها نذار - Hech qanchon meni yolg‘iz qoldirma.

می میرم برات - Sen uchun jonim fido.

ه می شه تو قلبمی - Sen har doim yuragimdasan.

کلمات از توصیف ع شق من به تو عاجزند - Senga bo‘lgan muhabbatimni so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi.

تو دلیل زندگیمی - Sen hayotimning sababisan.

قلبم برای تو میزنه - Mening yuragim sen uchun uradi.

Gul-hayot bezagi, sevgi-inson bezagi deganlaridek, yuragida muhabbati bor inson doimo go‘zaldir. Agar sizga muhabbat yo‘lboshchilik qilayotgan bo‘lsa, bu yo‘llar qanchalar og‘ir va mashaqqatli bo‘lmasin, unga ergashing. Agar u o‘z qanotlari bilan quchoqqa olsa-yu, parlar orasidagi yashirin tig‘lardan sizga ozor yetganida ham unga quloq soling. Zero, sevgi tog‘larni kesib o‘tish uchun yo‘l ochadi ع شق از ع بور کوه ها را هموار می کند).) Qo‘shimcha sifatida, muhabbat haqida maqollardan misol keltirmoqchimiz.

1) عا شقي پيدا ست از زاري دل --- نيست بيماري چو بيماري دل.

Oshiq qalb nolasidan bilinadi --- bu kasallik emas, yurakning dardi.

2) ع شق در هر جا که قدم گذارد ع قل و تدبیر از آنجا رخت بر می بندد.

Sevgi qayerga qadam qo‘ymasin, donolik ketadi

3) ع شق مانند جنگ است: ا ینکه هر وقت دو ست داری آن را شروع کنی، اما تمام کردنش دست خودت نیست.

Sevgi urushga o‘xshaydi: uni xohlagan vaqtda boshlashingiz mumkin, lekin bu sizga bog‘liq emas.

4) زنی که عا شق نبا شد هچون گلی است که عطری ندارد.

Oshiq bo‘lmagan ayol atirsiz gulga o‘xshaydi

5) ع شق پادشاهی است که لطف خود را از هیچ کس دریغ نمی کند.

Sevgi o‘z inoyatini hech kimdan ayamaydigan saltanatdir.

Alber Kamyu aytgan edi: Agar men axloq targ‘ibotchisi sifatida kitob yozganimda, uning yuzdan to‘qson to‘qqiz sahifasini oppoqligicha qoldirardim. So‘nggi sahifasiga esa “Men faqat bitta burch - sevish burchini bilaman”, - deya yozgan bo‘lardim. Shunday ekan, bu hayotda doimo sevib sevilib yashaylik. Zero, faqat yurakdagina bizga kerakli yo‘llar xaritasi mavjuddir!

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1) O‘tkir Xoshimov “Daftar xoshiyasidagi bitiklar”
2) Mubashshir Ahmad “Olim, odam va olam”
3) Elchin Safarli “Dengiz haqida so‘zlab ber menga”
4) Рубинчик Ю.А Персидско-русский словарь. -М., 1970 г.
5) Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. - T., 2009.
6) https://www.beytoote.com/fun/proverb/proverbs-about1-love.html?m=1
7) https://youtu.be/GlCj01B4IkA
8) https://youtu.be/OMlkZBzHnJg